BOLALARDAGI SHOSHILINCH VA REJALI OPERATSIYALARDA ALLERGIK ASORATLARNI OLDINI OLISH

Faqirov Alijon Zohidovich - t.f.d.
Nizomov Qutbiddin Fatxullaevich - katta o‘qituvchi
Nizomova Dilnoza - magistrant
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Kirish. Bugungi kunda meditsina-ning, xususan xirurgiyaning imkoniyatlari sarhadi kengayib, davolashning yuqori texnologiyalari, innovatsion usullari keng amaliyotga tadbiq etilib borilmoqda. (1,2). Xusu-san, respublikamizda o’tkazilayotgan keng qamrovli islohotlar, ixtisoslashgan tibbiy markazlarning ochilishi, zamonaviy medi-tsina va xalq tabobati integratsiyalarining yangi, samarali, istiqbolli yo’nalishlari ochil-ganligi, kam invaziv endovizual xirurgiya usullarining keng maliyotga tadbiq qilinishi avvallari bedavo yoki davosi qiyin hisob-langan aksariyat tug’ma taraqqiyot noraso-liklari va orttirilgan kasalliklarni imkon qa-dar erta va yuqori samaradorlik bilan ope-ratsiya qilish imkonini bermoqda. (3,4). Ammo, shu bilan birga keyingi yillarda eko-logik buhronlar, ozon qatlamining yemiri-lishi, urbanizatsiya, globalizatsiya, kimyo sanoatining oziq-ovqat va maishiy sfera-larga jadal kirib kelishi, global isish, aholi tomonidan dori – darmon vositalarini nazo-ratsiz va shifokor tavsiyasisiz qabul qilish, dorixonalardan dori vositalarini retseptsiz berilishi oqibatida antibiotiklarni katta doza va asoslanmagan holda buyurilishi, gipodinamiya, giperlipidemiya, surunkali qabziyatlarga, o‘t yo‘llari diskineziyalariga moyillik, ortiqcha vaznga bog‘liq muam-molar yuzaga keldiki, bular shubhasiz aholi orasida allergik xastaliklarning ko‘payishiga olib keldi. (1.3). Ilmiy –tibbiy adabiyotlarda bunday bolalarda anesteziya preparatlariga anfilaktik reaktsiyalar va hatto o‘lim bilan tugagan hollar ko‘p yoritilmo-qda. Hatto, bugungi kunda operatsiyadan keyingi eng ulkan asorat–bitishmali kasal-liklar va keloid chandiqlarning asosiy saba-bi ham allergik fondir deb baholanmoqda. Jumladan bugungi kunda 17 yoshgacha bo‘l-gan bolalarning, hatto chaqaloqlarning de-yarli har beshtadan bittasida allergik diatezlar, toshmalar, surunkali yiring o‘choqlari borligi tufayli immun tizimidagi o‘zgarishlar kabi holatlar bolalar jarrohlari va anesteziologlari–reanimatologlari oldiga yangi vazifalarni, innovatsion g‘oyalarni muammo echimi uchun qo‘llash zaruriyatlari qo‘y-moqda.

Tadqiqotlardan maqsad; O‘zbekis-ton hududida allergik fonli bolalarning rejali va shoshilinch jarrohlik muolajalarida allergik asoratlar va nojo‘ya ta'sirlarni ol-dini olish.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar o‘z oldilariga quyidagi vazifalarni qo‘ydilar;

1.Xirurgik klinikalarga shoshilinch va rejali operatsiyalar uchun tushgan bemorlarning allergik reaktsiyalari foizini aniq-lash.

2.Bemorlarning yoshi, jinsi, allergik holat darajasi va ko’lami e'tiborga olingan holda ularga o’tkaziladigan operatsiya oldi va operatsiya vaqtidagi konservativ muo-lajalar algoritmini tuzish.

3.Allergik fonli bemorlarda yuqori texnologiyali kam invaziv operatsiyalarni qo’llash samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyektlari; 2015-yildan 2024- yil boshiga qadar tug’ma va orttirilgan xirurgik kasalliklar bilan 15931 nafar bemor kuzatuvlarimiz ostida bo’lib, klinikada pediatr, bolalar jarrohlari va anes-teziologlar tomonidan sinchiklab tekshi-rishlar natijasida ularning 2681 nafarida (16,8%) qismida turli–tuman allergik simptomlar, surunkali yiring o’choqlari va isitma holatlari qayd ətilgan. Operatsiya o’tkir appenditsit, peritonit, osteomielit, ichak tutilishlari, o‘pkaning bakterial destruktsiyalari, ichak invaginatsiyasi kabi shoshilinch bo’lsa, mazkur hamroh kasalliklar jarrohlik muolajalari uchun nisbiy qarshi ko’rsatmalar hisoblanib, desenbilatsiyalovchi, antiallergik terapiya ostida, intensiv kuzatuv va yordam bilan jarrohlik muolajlari bajarildi. Bunda albatta, davo-lashning yuqori texnol-

ogiyalari-innovatsion usullardan laparoskopiya, torakoskopiya, tsistoskopiya, endoskopiya usullaridan keng foydalanildi. Shoshi--linch jarrohlik muolajalari o'tkazish zaruriyati tug'ilmagan hollarda, ya'ni bemor hayotiga xavf tug'ilmaganda avval hamroh kasalliklar va allergik holatlar konservativ davolanib, keyin innovatsion usullarda rejali ravishda jarrohlik muolajalari o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarini baholash. 2014-2019 yillarda o'kazgan tadqiqot-larimizda xirurgik klinikalarga tushayotgan bemorlarning 15,3% qismida allergik fon kuzatilgan bo'lib, qiyosiy tahlil o'tkaz-ganimizda oxirgi besh yillikda ularning nisbati 1,5%ga oshgan. Oxirgi yillardagi ǝkologik buhronlar, dori preparatlarini pala-partish qo'llash, oziq-ovqat sanoatida allergiya chaqiruvchi moddalarning ko'plab ishlatilishi ana shularga sabab bo'lmoqda. Allergik fondagi bolalarda operatsiya oldi antiallergik tayyorgarliklar va chora-tadbirlar qo'llanilishi natijasida operatsiyaga olingan 15931 nafar bemorning 98 nafarida allergik fon bilan bog'liq asoratlar kuzatildi (0,6%). B asoratlar narkoz va operatsiya mahalidagi teri toshmalari, shishlar kabi yengil allergik reaksiyalar bo'lib, o'z vaqtida muolaja qilindi va operatsiyalarning bevos-ita hamda olis muddatdagi natijalariga kes-kin ta'sir ko'rsatmadi. Kam invaziv yuqori texnologik operatsiyalar (laparoskopiya, torakoskopiya, tsistoskopiya, endoskopiya) qo'llanil--gan 8034 nafar bemorda operatsiyadan keyingi chandiqlashish, bitishmalar, qon ketish va og'riqlar kabi asoratlar bevosita va olis muddat kuzatuvlarida 196 nafar (0,2%) bemorda, an'anaviy operatsiya o'tkazilgan 7897 nafar bemorning 997 nafarida (1,3%) kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yil-larda xirurgik kasalliklarga mubtalo bo'l-ganlar orasida allergik fon bilan tushuvchi bemorlar soni ko'payayotganligi muno-sabati bilan aholini tibbiy ma'rifati va ma'-naviyatini oshirish, allergolog mutaxassislarimiz sonini va malakasini ko'paytirish zamona talablaridan bo'lib turibdi. Operatsiyadan avval bemorlarda detoksikatsiya, desensibilizatsiya chora tadbirlarini qo'llash har qanday allergik holatlarda ham shoshilinch va rejali operatsiyalarni asoratsiz o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek allergik foni bor bemor bolalarda yuqori texnologiyali kam invaziv operatsiyalarni qo'llash operatsiyalarning asoratsiz va silliq kechishiga va operatsiyalarning bevosita hamda olis muddatdagi natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Alijon Faqirov. Sravnitel'naya xarakteristika metodov operatsii pri epispadii. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, Tosh--kent, 2004.

2. Alijon Faqirov. Bolalar urologiyasi. Meditsina oliygohlari uchun darslik, Toshkent, Yangi asr avlodi nashriyoti,2018.

3. A. Astafyeva. Lekarstvennaya allergiya. Monografiya, Moskva, 2020

4. I.Rozikova, A. Faqirov, Q. Nizomov, G. Razikova. Allergologiya, immunologiya va dermatologiyada tibbiy deontologiya va kasb etikasi. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2024. M.Haqberdiev, va boshq. Bolalarda allergik kasalliklar. Monografiya, Toshkent, 2013